

ONA TILI DARSLARINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH

Sotvoldiyeva Nafisaxon Abduraximovna.

Andijon viloyati, Oltinko'l tuman,

31-umumiy o'rta ta'lim maktabi, ona tili va adabiyoti fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanish, ona tili darslarini integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish, o'quv jarayonini tashkil qilishdagi asosiy vazifa va ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi to'g'risida to'liq fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ona tili fani, integrativ yondashuv, ta'lim-tarbiyaviy vazifalar, integrativ darslar.

Kirish: Umumta'lim maktablarining asosiy vazifasi o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishi, mantiqiy tafakkurini o'stirish; ularni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida tushunishga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olish, ma'lum fanlar yuzasidan turli bilim va malakalarni hosil qilish, to'la savodxonlikni ta'minlash, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ona tili darslarini har bir mavzu yuzasidan o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil qilish, o'quv jarayonining mohiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Axborotlar ko'lamining kengayishi, o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan bilim va malakalar hajmining oshishi, integratsion jarayonlarning optimal variantlarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Bu kabi keng qamrovli jarayonlarni tashkil qilish, boshqarish va yo'naltirish uchun esa, albatta, o'qituvchidan doimiy tarzda o'z ustida ishlash va intellektual salohiyatni talab etadi.

Ona tili fanini o'qitishda integratsiya o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan tarkibiy bog'lanishni mustahkamlab, ularni jamlashtirib, o'quvchilarning tabiat va jamiyat

haqidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchining qanday usul va vositalardan samarali foydalanishiga bog'liq.

Natijalar: Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili fanining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mohiyatiga, uning g'oyaviy-siyosiy va nazariy tomondan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning ona tili fanining o'zlashtirish darajasi ham, o'z o'rnida, o'qitishning amaliy-ilmiy asosda maqsadga muvofiq tashkil etilishiga, o'qituvchining o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mohiyatiga mos bo'ladigan ta'lim shakllari, usullari, shuningdek vositalaridan qo'llana olishiga uzviy bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktablarda integratsiya deganda biz yangi faol pedagogik izlanishlarni, pedagogik jamoada ijodiy o'sishni, o'quvchilarga foydali, o'quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini foydalanish mahoratini tushunamiz. Fanlarni integratsiyalab o'qitish masalasini hal qilish uchun fanlarning paydo bo'lishi tarixi va ularning taraqqiy qilishini tushunib yetish zarur. Buning uchun fanlarning takomillanish tarixini bilish kerak. Ana shunda fanlarni integratsiyalab o'qitish masalasining hozirgi holatini, fanlarning paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti qanday bo'lganligini, kelgusida qanday fanlar bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritish mumkin.

Muhokama: Ona tili darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish o'quvchilarni mehnatga ongli munosabatda bo'lishi ruhida, o'zbek xalqining ona tili o'tmishi, milliy ma'naviyati ruxida, huquqiy tarbiyalash, shuningdek, ularni bilish va ijodiy ishlash o'rgatib borish nazarda tutiladi. O'quvchilarda ona tili tafakkurni rivojlantirishda va takomillashtirishda fanlararo integratsiyadan foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish uchun fanlarning paydo bo'lishi tarixi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Buning uchun fanlarning rivojlanish tarixini bilish lozim. Ana shunda fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosining hozirgi holatini, fanlarning paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti qanday bo'lganligini, kelgusida qanday fanlar bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritish mumkin.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya eta olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-

javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini foydalanishdan asosiy maqsad o‘quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. O‘qitishning natijalari ham o‘qituvchining, o‘qitishning ko‘zlangan maqsadi, uning ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilab olishiga kursning mohiyatiga xos shaklda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullaridan ilmiy asosda qo'llana bilishga bog'liqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova K. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o‘rganish metodikasi. – T.: Mashhur-press, 2016.

2. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Ilm Ziyos, 2010.

3. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.

4. Xalilbek o‘g‘li X. E. Motor moylarida bo‘ladigan o‘zgarishlar va ularning xizmat qilish davri //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 321-323.

5. Xalilbek o‘g‘li X. E., Bobirxon o'g'li U. B., Xalimjonov E. X. Logistik korxonalar faoliyatini o‘rganish va ularning samaradorligini oshirish jarayonlari //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 89-92.

6. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 471. – C. 06015.